

## **5- AMALIY ISH**

### **Mineral o‘g‘itlarni aniqlash**

25- jadvaldan foydalanib, zarur tajribalarni o‘tkazgan holda sizga berilgan mineral o‘g‘it namunalarini aniqlang.

**1- variant.** Uchta probirkada quyidagi mineral o‘g‘itlar berilgan: kaliy nitrat, ammoniy nitrat, superfosfat. Qaysi probirkada qanday mineral o‘g‘it bor ekanligini aniqlang.

**2- variant.** Sizga berilgan o‘g‘itning kaliy xlorid ekanligini aniqlang.

**3- variant.** Sizga berilgan o‘g‘itning ammoniy xlorid ekanligini toping.

**4- variant.** Sizga berilgan mineral o‘g‘itning nomini aniqlang. Bu o‘g‘it haqida nimalarni bilasiz? (Sizga o‘qituvchi istalgan bitta mineral o‘g‘itdan 4—5 gramm miqdorda namuna berishi mumkin.)